



O'zbekiston madaniyat instituti tayyorgarlik jarayoni jadallik bilan davom etmoqda

8-avgust kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev oliygohda yangi o'quv yiliga tayyorgarlik borasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi. Jumladan, o'quv binolari va auditoriyalarning holati, o'quv jihozlari yetarligi ko'zdan kechirildi.

Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik doirasida xodimlarning mas'uliyatini yanada kuchaytirish zarurligini ta'kidlanib, har bir vazifa o'z vaqtida va sifatli bajarilishi lozimligi aytib o'tildi. Bu borada belgilangan muddatlarda amalga oshiriladigan ishlar ro'yxati tuzilib, mas'ullarga aniq vazifalar yuklatildi.

Shuningdek, talabalar turar joyida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va registrar ofisini (talabalarga xizmat ko'rsatish markazi) tashkil etish bilan bog'liq jarayonlar ham o'rGANildi. Institut rektori mas'ullarga barcha ishlarni sifatli bajarish yuzasidan o'z fikr-mulohazalari va takliflarini bildirib, muhim tavsiyalar berib o'tdi.







0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti va Olmaliq KMK AJ o'rta sidagi ijodiy hamkorlik yanada mustahkamlanadi

Xabaringiz bor, 0'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusiga asosan, yurtimizdagi yetakchi ijodiy tashkilotlarning «Do'stlar klubи» tashkil etilib, ularga yirik korxona, bank va kompaniyalar homiy sifatida biriktirilgandi.

Shunga muvofiq, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati o'rtaida «Do'stlar klubi» doirasidagi qator ijodiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Joriy yilning 31-iyul kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJ boshqaruv raisi, Oliy Majlis senati a'zosi Abdulla Xursanov tashrif buyurib, institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev bilan uchrashib ikki tomonlama hamkorlikning istiqboldagi rejalarini yuzasidan fikr almashishgan edi.

Shunga muvofiq, bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga korxona rahbarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha maslahatchisi Kamola Umaraliyeva va «Metallurg» madaniyat saroyi direktori Zahreddin Mahmudaliyevlarlar tashrif buyurib, institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev bilan uchrashishdi.

Dastlab rektor tomonidan oliygoh tarixi, faoliyati va erishgan yutuqlari borasida mehmonlarga qisqacha ma'lumot berib o'tildi. Uchrashuvda tomonlar korxona faoliyatiga oid spektakl sahnalashtirish, dramaturgiya yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar o'rtaida tanlov o'tkazish, korxona va Olmaliq shahri aholisi uchun yaqinlashib kelayotgan mustaqillik bayramini hamkorlikda yuqori saviyada o'tkazish va doimiy ijodiy aloqalarni o'rnatishga kelishib olib, o'tkaziladigan tadbirlarning aniq rejasini ishlab chiqish bo'yicha mas'ullarga tegishli tavsiyalar berib o'tildi.

Shuningdek, korxona maslahatchisi K.Umaraliyeva tomonidan institut kutubxonasi uchun Olmaliq KMK AJ homiyligida nashr etilgan kitoblar to'plami, jurnal va gazetalar taqdim qilindi. Ushbu kitob va jurnallar yosh avlodning ma'naviy kamolotini shakllantirish, ularning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish hamda kitobxonlikni rag'batlantirishga xizmat qilishi ta'kidlab o'tildi.





O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Madaniyat vaziri o'rinosini ishtirokida yig'ilish o'tkazildi

2-avgust kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Madaniyat vaziri o'rinosini Murodjon Majidov ishtirokida yig'ilish o'tkazildi. Unda oliyoh rahbariyati, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va bo'lim boshliqlari qatnashdi.

Yig'ilishni kirish so'zi bilan ochib bergan institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev oliyohda yangi o'quv yiliga tayyorgarlik jarayonlari jadallik bilan davom etayotganini hamda muassasaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv dasturlarini zamonaviy talablarga mos ravishda yangilash va talabalarga yanada qulay sharoitlar yaratish borasida olib borilayotgan ishlarga alohida e'tibor qaratilayotganini aytib o'tdi.

Shundan so'ng, yig'ilishda tashkiliy masala ko'rilib, Madaniyat vazirining tegishli buyrug'i bilan institutga yangidan tayinlangan prorektorlar jamoaga tanishtirildi.

Xususan, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor lavozimiga Ergashev Shohbek Muzaffarovich, o'quv ishlari bo'yicha prorektor lavozimiga Madiyev Sobir Xayitqulovich hamda ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor lavozimiga Yakubov Baxtiyor Choriyevich tayinlandi.

Murodjon Majidov yangi lavozimga tayinlangan prorektorlarga muvaffaqiyat tilab, ularga institut ravnaqi yo'lida munosib hissa qo'shish zarurligini ta'kidladi. Shuningdek, vazir o'rinosbosari yoshlar bilan ishlashda zamonaviy yondashuvlarni qo'llash, ta'lim jarayonini takomillashtirish va ilmiy tadqiqotlarga e'tiborni oshirish bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tdi.






**Yangi o'quv yiliga
tayyorgarlik hamda qabul
jarayonlariga oid yig'ilish**

o'tkazildi

16-iyul kuni O'zDSMI rektori, professor Nodirbek Sayfullayev tomonidan barcha prorektorlar, fakultetlar dekanlari hamda bo'lim boshliqlari ishtirokida yig'ilish o'tkazildi.

Yig'ilishda asosiy e'tibor yangi 2024/2025-o'quv yiliga tayyorgarlik hamda qabul jarayonlari masalalariga qaratildi. Xususan, qabul jarayonlarini yuqori saviyada o'tkazish, bu borada ochiqlik va shaffoflik ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilinib, yangi o'quv yiliga puxta tayyorgarlik ko'rish bo'yicha barcha mas'ullarga tegishli topshiriqlar berib o'tildi. Bundan tashqari, kafedralarning bugungi holati, 2024/2025 o'quv yilida professor-o'qituvchilarga o'quv yuklamalarini adolatli taqsimlash hamda o'quv rejalarini o'z vaqtida tasdiqlatish masalasi muhokama etildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutining o'quv ishlari bo'yicha prorektori – rektori vazifasini vaqtincha bajaruvchi etib tayinlangan institutning Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori Eldor Shermanov hamda Toshkent shahridagi "S.A.Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya instituti" federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasi filialining direktori lavozimiga tayinlangan ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati kafedrasi mudiri Iqbol Meliqo'ziyevlarning ham keyingi faoliyatiga muvafaqqiyat tilanib, ularga institutning esdalik sovg'alari topshirildi. Yig'ilish so'nggida kun tartibidagi asosiy masalalar yuzasidan rahbar xodimlarning fikr-mulohazalari, takliflari tinglandi.





0'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga hujjat topshirgan abituriyentlar uchun muhim eslatma

→ 2024/2025-o'quv yili qabuli uchun kasbiy (ijodiy) imtihonning aniq sanasi, vaqtি va manzili har bir abituriyentning my.uzbmb.uz saytidagi shaxsiy kabinetiga yuborilgan.

→ Shuningdek, har bir abituriyent tomonidan shaxsiy kabinetda ko'rsatilgan telefon raqamlariga yuqoridagi suratdagi kabi sms-xabarnoma keladi.

→ Yuqoridagilarni inobatga olib, abituriyentlardan:

□ o'zlarining shaxsiy kabinetlari orqali kasbiy (ijodiy) imtihonlarda ishtirok etish ruxsatnomasini yuklab olishlari;
□ ruxsatnomada (qog'ozga chiqarilgan holda) belgilangan muddat va manzilga imtihon boshlanishidan bir soat oldin yetib kelishlari so'raladi.

→ Qo'shimcha ma'lumotlar uchun:

☎ (+99871)230-28-42

☎ (+99871)230-28-48

Madaniyat va san'at fidoyilari tantanali kutib olindi

Xabaringiz bor, 15-aprel kuni mamlakatimiz bo'ylab madaniyat va san'at sohasi xodimlari bayrami nishonlanadi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida erta tongdan bayramona kayfiyat hukm surib, iqtidorli yoshlar tomonidan sohaning fidoyi ustoz va murabbiylari tantanali ravishda kutib olindi.







**Oliy ta'lim,
innovatsiyalar
maslahatchisi**

**fan va
vaziri
Jenisbek**

Piyazov O'zbekiston Respublikasi kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonini kuzatdi

Xabaringiz bor, shu kunlarda Respublika oliy ta'lim muassasalarida 2024/2025-o'quv yili qabuli bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkazilmoqda. Shu jumladan, bugun, 8-iyul kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida kasbiy (ijodiy) imtihonlar boshlandi.

Mazkur jarayonlar bilan tanishish maqsadida O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining Madaniyat va san'atni rivojlantirish bo'yicha maslahatchisi Jenisbek Piyazov O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga tashrif buyurdi.

Tashrif davomida Jenisbek Piyazov oliygoҳ rektori, professor Nodirbek Sayfullayev hamrohligida qabul komissiyasi a'zolari bilan muloqot qilib, har bir yo'naliшhga o'z sohasi bo'yicha eng kuchli, bilimli va iqtidorli abituriyentlar qabul qilinishi lozimligini ta'kidladi.


Shuningdek, vazir maslahatchisi abituriyentlar va ularning ota-onalari bilan suhabatlashib, ular uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Qayd etish joiz, qabul va kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonlari adolatli va shaffof holda tashkil etish maqsadida oliygoҳda barcha zaruriy choralar ko'rilgan. Jumladan, barcha imtihon jarayonlari videokuzatuv kameralari yordamida yozib olinib, institut rasmiy veb-saytida onlayn tarzda namoyish etilmoqda.

Abituriyentlarning ijodiy, amaliy ishlarini baholashga komissiya raisi sifatida institutimizda faoliyat yuritmaydigan taniqli san'atshunos olimlar, faxriy unvonga ega bo'lgan mashhur teatr va kino rejissyorlari, aktyorlari, xonandalar,

sozandalar kino-teleoperatorlar jalg etilgan.





Rektor murojaati

**Ota-onalar va abituriyent-yoshlarga
MUROJAAT**

Assalomu alaykum, hurmatli ota-onalar va abituriyentlar!

→ Hech sir emaski, Hurmatli Prezidentimiz Shavkat

Mirziyoyevning e'tibor va g'amxo'rliklari natijasi o'laroq, bugun milliy san'atimizda o'z fikri, uslubi va dunyoqarashiga ega yosh ijodkorlar avlodi shakllanmoqda. Ularning ijodiga nazar solar ekansiz, kreativlik, inson fikrining erkin ifodasi, atrofda bo'layotgan voqeа-hodisalarga bo'lgan tezkor munosabatga guvoh bo'lasiz. Bir so'z bilan aytganda, ushbu yoshlар Yangi O'zbekistonning bugungi salobati-yu salohiyatiga monand tarzda mushtasham san'ati va madaniyatining bunyod etilishiga o'z hissasini qo'shmoqdalar.

→□ Hozirda oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari ostonasida turibmiz. Bu jarayonning natijasi yurtimiz kelajagi uchun bevosita aloqador bo'lgani uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, kirish imtihonlarida barchangizga omad yor bo'lishini tilab qolaman.

→□ Bugun siz tanlagan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti yurtimizda aktyorlik, rejissyorlik, kinoteleoperatorlik, san'atshunoslik, folklor ijrochiligi, milliy qo'shiqchilik, xalq cholg'ulari ijrochiligi, madaniyatshunoslik, kutubxonashunoslik hamda madaniyat va san'at menejmenti ta'lim yo'naliishlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlovchi yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan hisoblanadi. Bu yerda o'z ijodiy va ilmiy faoliyati bilan nafaqat yurtimiz, balki jahon san'ati rivojiga munosib hissa qo'shgan ustoz san'atkorlar va yosh umidli professor-o'qituvchilar talabalarga san'at sirlaridan saboq berib kelmoqdalar.

Aziz abituriyentlar!

Hurmatli ota-onalar!

→□ Ishonchingiz komil bo'lsinki, qabul va kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonlari adolatli va shaffof holda tashkil etilishi uchun institutimizda barcha zaruriy choralar ko'rilmоqda. Jumladan, barcha imtihon jarayonlari videokuzatuv kameralari yordamida yozib olinadi hamda institut rasmiy veb-saytida onlayn tarzda namoyish etiladi.

→ Abituriyentlarning ijodiy, amaliy ishlarini baholashga komissiya raisi sifatida institutimizda faoliyat yuritmaydigan taniqli san'atshunos olimlar, faxriy unvonga ega bo'lgan mashhur teatr va kino rejissyorlari, aktyorlari, xonandalar, sozandalar kinoteleoperatorlar jalg etilgan. Imtihon natijalari shu kunning o'zida kechki payt institutning www.dsni.uz veb sayti orqali e'lon qilinadi.

→ Eng asosiysi, qabul jarayonlarida korrupsiya, tanishbilishchilik kabi holatlar kuzatilmasligi uchun institut tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda barcha zaruriy choralar ko'rildi. Bugun talabalikka tavsiya etiladigan yoshlar sohaning ertasini belgilab berishini anglagan holda, bu jarayonga institutning barcha xodimlari jiddiy e'tibor bilan yondoshmoqdalar. O'z navbatida, sizlar ham bu jarayonda begona kishilarga emas, iqtidoringiz va bilim salohiyatingizga ishoning. Hurmatli ota-onalar, shuni unutmangki, bugungi tutgan oqilona yo'lingingiz natijasida farzandingizning kelajagini yanada yorqinroq bo'lishiga hissa qo'shgan bo'lasiz. Halollik va poklik qoidalari asosida tarbiyalab, voyaga yetkazgan aziz farzandingizning katta hayotga qo'yayotgan ilk qadamlarini korrupsiya va firibgarlik kabi jirkanch illatlar ta'sirida bo'lishidan asrang. Yana bir bor barchangizga sihat-salomatlik hamda kirish imtihonlarida omad yor bo'lishini tilab qolaman!

Nodirbek Sayfullayev,

**0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori,
professor**

→ Imtihon jadvali bilan tanishish

→ Kasbiy(ijodiy) imtihon jarayonini jonli translyatsiya orqali tomosha qilish